

QADIMGI XORAZM DAVLATINING IQTISODIY HAYOTIDA “UZBOY” O‘ZANI AHAMIYATI

Sadaddinov Sharafaddin Xaytbay o‘g‘li

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Amudaryoning qadimiy irmog‘i Uzboyning o‘rganish tarixi bayon qilingan. Yunon, rim yozma manbalari va o‘rta asrlardagi allomalar tomonidan berilgan ma‘lumotlar tahlil qilingan. Hududni o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan solishtirilgan. Sariqamish ko‘li, Amudaryoning qadimiy o‘zanlari Dovdon va Daryoliq havzalarining o‘zlashtirilishi masalalari ham yoritilgan.

***Kalit so‘zlar.** Amudaryo, Uzboy, Kaspiy dengizi, Abu Rayxon Beruniy, Strabon, Dovdon, Daryoliq.*

DISTRIBUTARY AMU DARYA “UZBOY” AND THE HISTORY OF ITS STUDY

Sadaddinov Sharafaddin Khaytbay ugli

Teacher of Urganch state university

ABSTRACT

The article describes the history of the study of ancient distributary of the Amu Darya Uzboy. The data of Greek, Roman authors and medieval figures are analyzed. This is compared with the studies conducted of this area. The issues of developing the Sarykamysh Lake, the Dovdon and Daryalyk basins, and the ancient channels of the Amu Darya are also discussed.

***Keywords.** Amu Darya, Uzboy, Caspian Sea, Abu Raykhan Beruni, Strabo, Dovdon, Daryalik.*

KIRISH

Qadimgi Xorazm tarixini o‘rganishdagi eng muhim masalalardan biri Amudaryo suvlarining Kaspiy dengiziga quyilishi, ya‘ni Uzboy masalasidir. Bu masala tadqiqotchilar tomonidan eng ko‘p tahlil qilingan masalalardan biridir, chunki Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi masalasi turli davrga oid yozma manbalarda turlicha ma‘lumotlar borligi uchun tadqiqotchilar tomonidan turlicha fikrlar ilgari surilgan. Ularni ilmiy asosda o‘rganish va tahlil qilish lozim, chunki Amudaryo o‘zanlari o‘z yo‘nalishlarini o‘zgartirib turishi sababini va unga inson omili ta‘sirini aniqlash muhim hisoblanadi. Bu tarixiy taraqqiyot jarayonida Orolbo‘yi hududlarining insonlar tomonidan o‘zlashtirishi masalalarini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etish imkonini beradi.

Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi haqidagi dastlabki ma'lumotlar yunon manbalarida uchraydi. Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi davrida unga hamrohlik qilgan Aristobul dastlab bu haqda yozib qoldirgan. Keyingi davrlarda yashagan yunon mualliflari Arrian, Strabon boshqa olimlar bu ma'lumotlarni o'z asarlarida qayd qilib o'tganlar. Strabon hind tovarlari kemalarda daryo orqali Girkan (Kaspiy) dengiziga olib borilganligini yozib qoldirgan. Mil.avv. I asrda yashagan Rim muallifi Varron asarida ham shunday ma'lumotlar bor. Lekin mil.avv. II asrda yashagan Polibiyning asarida apasiaklar otlar bilan birgalikda Oks daryosini kechib, Girkaniyaga boradilar deb ikki xil vaziyatni yozib qoldirgan. Birinchisida otliqlar daryodagi sharshara ostidan o'tgan deb ko'rsatsa, ikkinchisida daryo ma'lum bir hududda yer ostidan o'tgan deb yozgan. Bu esa, Amudaryo bo'yida yashagan xalqlar Kaspiy dengiz bo'yiga quruqlik orqali borganliklarini aks ettiradi. Milodiy IV asrda yashagan Rim tarixchisi Ammian Marselin asarida ham Amudaryoning Kaspiy dengizi bilan bog'langanligi aytib o'tgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amudaryoning irmog'ining Kaspiy dengizi bilan bog'langanlik masalasi Abu Rayxon Beruniyning "Geodeziya" asarida to'liq ma'lumot keltirgan. Bu haqda o'rta asrlarda yashagan boshqa allomalarning asarida, shuningdek, Abulg'oz Bahodirxon ham o'z asarida shu haqda yozib qoldirgan.

XIX asr va XX boshlarida Amudaryoning quyi oqimi va Sariqamish bo'ylarining geografik tuzilishini ilmiy jihatdan o'rganish uchun maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilingan. Ular Amudaryoning Kaspiy dengiz bilan bog'lagan o'zanini aniqlab, uning har doim ham faol bo'lmaganligini va ma'lum bir davrlardagina suvning mavjud bo'lmaganligini aniqladilar. Abu Rayxon Beruniy tomonidan tasvirlangan geografiya bugungi kunda olib borilgan tadqiqotlar bilan mos ekanligi isbotlandi ¹. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ham asoslangan. Amudaryoning quyi havzasidagi iqlim o'zgarishlari va unga inson ta'sirini o'rganish maqsadida "Golotsenda iqlim o'zgarishlar va Orol dengizi hududlarining insonlar tomonidan o'zlashtirilish evolyusiyasi" INTAS loyihasi doirasida tashkil etilgan arxeologik-geomofologik ekspeditsiyaning faoliyati jarayonida ham asoslangan².

Mil.avv. IV-III ming yilliklarda Amudaryo suvlari Kaspiy dengizigacha yetib borgan. Mil.avv. II ming yillik boshlaridan kelib, u yerda suv oqimi bo'lmagan³. Mil. avv. I ming yillik boshlarida Sariqamishbo'yi deltasi suv bilan ta'minlana boshlagan.

¹ Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения. // МХЭ. Вып. 3. – Москва: Академии наук СССР, 1960. –С.9.

² Бороффа Н., Оберхэнсли Х. Заселение Приаралья и изменение уровня Аральского моря (новые данные к проблеме Узбоя). /Приаралье на перекрестке культур. –Самарканд. 2013. -С.25.

³ Итина М.А. Новые стоянки Тазабагыбской культуры. // МХЭ. – Москва. 1959. Вып. 1. – С. 52 Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999. –С.22.

Mil.avv. VII asr boshlaridan yana Sariqamishbo‘yi deltasida suv ko‘paygan. Bu holat turli darajada milodiy IV-V asrlargacha davom etgan⁴. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, shu davrlarda Uzboydan Kaspiy dengiziga kemalar qatnagan⁵.

Mil.avv. IV-II asrlarda Sariqamish deltasida suvning ko‘payishi va doimiy bo‘lishi hududning g‘arbiy xorijiy mamlakatlar bilan suv orqali o‘zaro munosabatlarini yanada jonlantirgan. Uzboyga suvning doimiy quyishi milodiy I ming yillikning boshlaridan to‘xtagan. Amudaryo Orol deltasiga quyila boshlagan. Shuningdek, sun‘iy sug‘orish tizilmasining rivojlanishi ham Sariqamishga boradigan suv hajmi qisqartirgan⁶.

Uzboy daryosining suv bilan ta‘minlanishi Sariqamish ko‘liga suvning qay darajada borishi bilan bog‘liq. Amudaryoning chap qirg‘og‘i Sariqamish botig‘iga nisbatan 40 metr balandlikda joylashganligi ham uning suv bilan ta‘minlanishini murakkablashtiradi. Amudaryoning chap sohilida Qanxadaryo, Tunidaryo, Dovdon, Daryoliq (Qo‘xnadaryo) kabi ko‘xna irmoqlari mavjud bo‘lgan⁷. Ularning orasidan eng yirik irmog‘i Dovdon va Daryoliq hisoblanadi. Dovdon irmog‘idan mil.avv. IV asrning birinchi yarmida Ko‘hna Uaz kanali⁸, mil.avv. IV-III asrlarda Chermonyob kanali qurilgan. Bu hududlarda milodiy II-III asrlargacha kanalda suv bo‘lgan. Chermonyob kanali havzasida Ko‘zaliqir, Qangaqala, Qandumqal’a, Ko‘xna Uaz Govurqal’a, Qal’aliqir 2, Shoxsanam, Qo‘narliqal’a, Zmuxshir (Zamaxshar), Govurqala kabi qal’alar qurilgan⁹. Chermonyob va uning irmoqlari bo‘ylab ko‘plab turar joy izlari qo‘rg‘onlar, antik davr keramikasi xumdonlarining izlari topilgan. Shoxsanam qal’asi atrofidagi kanalning tuproq kesmasi morfologik tahlili asosida dehqonchilikning barcha bosqichlari aniqlangan.¹⁰

Amudaryo irmoqlari o‘z yo‘nalishlarini tez-tez o‘zgartirib turganligi sababli, antik davrning boshlariga kelib, ya‘ni mil.avv. IV asrdan Dovdon kanalining suvi kamaya borgan. U faqat Chirmonyob kanalini suv bilan ta‘minlagan. Shuning uchun bu davrda faqat Qal’aliqir, Ko‘zaliqir vohalari rivojlangan. Lekin suvning kamayishi sun‘iy sug‘orish tizimini yanada takomillashishiga olib kelgan¹¹. Kichik kanallar birlashtirilib, yirik magistral kanallarga aylantirilgan. Ularning saqasi daryo bilan

⁴ Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности, 37-бет Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – СПб: Петербургское общество, 2013. –С. 98.

⁵ Страбон. География. В 17-ти книгах. Перевод и комментарии Г.А.Стратоновского. – Москва: Наука. 1964. XI, VII. 3.

⁶ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: Наука, 1969. –С.147.

⁷ Андрианов В.Б. Древние оросительные системы. – С.146; Низовья Амударьи. – С. 147–174

⁸ Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье. // ЭО. № 1. 1997. – С. 27.

⁹ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи, 86 бет

¹⁰ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья, 162-бет.

¹¹ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи, 80- бет.

bevosita bog‘langan. Bu ayniqsa, Chermonyob kanali bo‘ylarida kuzatilgan¹². Bu davrdagi kanallar kengligi va sayozligi tufayli toshqinlar davridagina suv bilan to‘lgan.

XIII asrda mo‘g‘ullar bosqini davrida Amudaryoning quyi oqimidagi hududlardagi irrigatsiya tizimlarining buzilishi natijasida Amudaryoning suvi Sariqamish tomonga burilib ketadi. Natijada bu davrda yana Sariqamish ko‘li va uning atroflaridagi daryolarda suv paydo bo‘ladi. Ko‘llar vujudga keladi.

O‘rta asrlar davrida ham Sariqamish deltasi ma‘lum bir davrlarda suv bilan ta‘minlangan. Shu davrda uning atroflarida aholi ko‘chib borib, dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Bu davr Abulg‘ozi Bahodirxon asarida bayon qilingan. XVI asrdan keyin bu yerda suvning sathi pasaya boshlagan. Suvning sho‘rligi ham ortib borgan.

Bugungi kunda Amudaryoning eski o‘zani Uzboy qurib qolgan. Uning geologik tarixini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarb masalaga aylangan. Xududning geografik tarixini o‘rgangan geologlar va arxeologlar o‘rtasida Uzboy masalasi o‘zining oxirgi yechimini topgan emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: Наука, 1969.
2. Бороффка Н., Оберхенсли Х. Заселение Приаралья и изменение уровня Аральского моря (новые данные к проблеме Узбоя). Приаралье на перекрестке культуры. – Самарканд. 2013.
3. Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье. // ЭО. № 1. 1997. – С. 23 – 41.
4. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999.
5. Гладышев А.И. Путешествие по уснувшей реке. / Природа. №9. 2002.
6. Низовья Амудары, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения. // МХЕ. Вып. 3. – Москва: Академия наук СССР, 1960. –С.9.
7. Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская шаг в древности. – СПб: Петербургское общество, 2013.
8. Страбон. География. В 17–ти книгах. Перевод и комментарии Г.А.Стратоновского. – Москва: Наука. 1964. XI, VII.
9. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgacha). – Toshkent: Fan, 1959.

¹² Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья, 158-бет.